

UDK: 619:636.2:617.3

XORIJ DAN KELTIRILGAN MAHSULDORLIGI YUQORI BO'LGAN  
SIGIRLARDA YIRINGLI PODODERMATITNING KELTIRIB  
CHIQARUVCHI SABABLAR

B.Z.Muxtorov - Veterinariya fanlari falsafa doctori (PhD),

Uzaqov.O.O - magistr

Samarqand davlat veterinariya meditsinası,  
chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti

**Annotatsiya.** Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha mahsuldor sigirlarda yiringli pododermatitlarni keltirib chiqaruvchi sabablar o'r ganilgan. Yiringli pododermatit kasalligining keltirib chiqaruvchi sabablardan hayvonlarni saqlash sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, bunda yilning barcha fasllarida kasallik uchrasada ayniqsa kasallik qish, bahor va kuz fasllarida ko'p uchrashi kuzatildi. Bu fasllarda kasallikning keltirib chiqaruvchi sabablar o'r ganildi.

**Аннотация.** По результатам проведенных научных исследований изучены причины гнойного пододерматита у продуктивных коров. Одна из причин гнойного пододерматита связана с условиями содержания животных, отмечено, что хотя заболевание встречается во все сезоны года, особенно часто заболевание встречается зимой, весной и осенью. В эти сезоны изучались причины заболевания.

**Summary.** Based on the results of scientific research, the causes of purulent pododermatitis in productive cows have been studied. One of the causes of purulent pododermatitis is associated with the conditions of keeping animals, it was noted that although the disease occurs in all seasons of the year, the disease is especially common in winter, spring and autumn. During these seasons, the causes of the disease were studied.

**Kalit so'zlar.** Yiringli pododermatit, yiringli-nekrotik, tuyoq, mikro va makroelementlar.

**Ключевые слова:** Гнойный пододерматит, гноино-некротический, копытный, микро- и макроэлементы.

**Key words:** Purulent pododermatitis, purulent-necrotic, ungulate, micro and macro elements.

**Kirish:** Respublikamizga keyingi yillarda xorijdan keltirilgan yuqori mahsuldor sigirlar orasida oyoqlarning distal sohasi kasalliklarini davolash va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ammo tuyoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishlari oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin

kamayishi va og‘ir kasallanish natijasida majburan so‘yilish holatlari ham uchrab turibdi. SHu sababdan xorijdan keltirilgan qoramollar tuyoqlarining yiringli pododermatitlarini keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash, kasallikning uchrash darajasini o‘rganish, hayvonlar organizmida kechadigan morfologik, biokimyoviy va immunologik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, kasallikka erta tashhis qo‘yish, kasallikka chalingan hayvonlarni davolash va mazkur patologiyani oldini olish hanuzgacha muammo bo‘lib kelmoqda.

Ayrim mualliflar Blednov A.I., Blednova A.V [1-2] tuyoq kasalliklaridan pododermatit va har xil yaralarni keltirib chiqaruvchi sabablarga hayvonlarni to‘la qiymatsiz oziqlantirish, saqlash va parvarishlashni ko‘rsatishgan. Mualliflarni ta’kidlashicha, ushbu barcha omillar, o‘z navbatida yiringli-nekrotik jarayonlarga sabab bo‘luvchi tuyoq deformatsiyalarini keltirib chiqaradi.

Ermolaev V.A., Marin E.M., Saveleva YU.V lar esa hayvonlar tuyoqlarining uzlusiz zararlanishiga olib keluvchi asosiy sabablarga, shuningdek, har xil shikastlanishlar, havo namligi va undagi ammiak miqdorining yuqoriligi, tagjoyning namligi, adinamiya, tuyoqlarga o‘z vaqtida ishlov bermaslik, modda almashinuvining har xil buzilishlari, organizm rezistentligining pasayishi, to‘la qiymatsiz oziqlantirish, hayvonlarni saqlash texnologiyalarini buzilishi, binoning sifatli va rejali dezinfeksiya qilinmasligi kabi omillarni ham kiritish mumkin [3].

Xuzin D.A., Aleksandrov D.I hamda Xuzin D.A., Xusniev F.A., Lutfullin D.N., Muxammethsin N.A lar keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra tuyoqlarning zararlanishi hayvonlarni saqlash sharoitlari, gung tozalash tizimi, bog‘lab yoki bog‘lamasdan bokslarda saqlash usuli kabi omillardan qat’iy-nazar, xo‘jaliklarda muntazam uchrab turishi tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan [4-5].

Ostrovskiy N.S. Yirik shoxli hayvonlar oyoq kasalliklari orasida barmoq kasalliklari ham salmoqli o‘ringa ega, patologiyalarni tashxislash, davolash va profilaktika chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ushbu guruuh kasalliklarini tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Muallif tomonidan tavsiya etilgan tasnif bo‘yicha yirik shoxli mollar barmoq sohasi kasalliklari to‘g‘risidagi uch asosiy guruuhga bo‘linadi: a) barmoqlarning birlamchi zararlanish kasalliklari; b) birlamchi zararlanishni yallig‘lanish-infektion asoratlari; v) uzoqlashgan va qaytmas farqlar va deformatsiyalar. Uchinchi guruuhga qaytmas tabiatli kasalliklar kirib, uning oqibatida har xil kontrakturalar va ankiroz bilan yakun topadigan fibrozli va ossifitsiyalanuvchi jarayonlar rivojlanadi.

V.N.Avrorov oyoq kasalliklarining kelib chiqishiga hayvonlarni tirqishli polda saqlash texnologiyasi bilan bog‘liq travmatizmni sabab qilib ko‘rsatadi [7]. Muallifning fikriga ko‘ra, hayvonlar bunday sharoitda saqlanganda tana og‘irligi tuyoq va tuyoq yumshog‘iga bir xilda taqsimlanmaydi, odatda tayanish tuyoqning yarmida yoki bitta tuyoqda ro‘y beradi, ikkinchisi esa tirqishga osilib turadi yoki pol qirralari

orasiga qisilib qoladi, buning oqibatida tuyaq teri asosini yallig‘lanishi kelib chiqadi va bartaraf etib bo‘lmaydigan oqsash hamda mahsuldorligini pasayishi kelib chiqadi.

Ogata A., Shimizu H., Sashiki S., Yamaguchi A. kabi Germaniya olimlarining ma’lumotlariga ko‘ra, qora-ola zotli sigirlarni sutchilik kompleksining betonli pol sharoitida bog‘lab saqlaganda, tuyaq kasalliklari 57,9% ni tashkil etib, bunda ko‘pincha tuyoqlarning aseptik va yiringli pododermatitlari, yumshoq tovon va tuyaq tagligi yaralari uchraydi. [8].

Shu sababdan yuqori mahsuldor sigirlardagi tuyoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishlari sut qoramolchiliga keltiradigan iqtisodiy zararini oldini olish hamda yangi zamонавиу spetsifik va nospetsifik davolash choralarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

**Tekshirish usuli va materiallari.** Xorij va vatanimiz olimlarining ilmiy adabiyotlarini tahlil qilgan holda, ilmiy izlanishlarimizni Respublikamiz viloyatlari va tumanlaridagi mavjud fermer xo‘jaliklarida va mas’uliyati cheklangan jamiyatlardagi yuqori mahsuldor sigirlarda yiringli pododermatit kasalligining etiologiyasini o‘rganish maqsadida Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi “Siyob-Shavkat Orzu” va “Abduqaxxon agro servis”, Urgut tumanidagi “A’zam Xoliqov”, Pastdarg‘om tumanidagi “Jo‘ra”, Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “Kogon Chinor chorvasi”, Jizzax viloyatining Paxtakor tumanidagi “Begzod naslli mollari” fermer xo‘jaligi hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi “Palandara chorvasi” mas’uliyati cheklangan jamiyat sharoitidagi mahsuldor sigirlarda yiringli pododermatit kasalligini keltirib chiqaruvchi etiologik omillarni o‘rganishga qaratildi.

**Olingan natijalar va ularning tahibili.** Kuzatishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda xorijdan keltirilgan hayvonlarni saqlaydigan molxonalarda tagjoyning o‘ta namligi, tuyoqlarga o‘z vaqtida to‘g‘ri ishlov berilmaslik va ishlov paytida tuyoqlarni kesish qoidalarining buzilishi kabi omillarning mavjudligi kuzatildi. Odatda tuyoqning mustahkamligiga kislotali yoki past kislotali muhit ijobiy ta’sir qiladi, lekin kuzatilgan ko‘pgina holatlarda molxonadagi ammiak, tezak va siydik muhitining ishqoriyligi bois bunday omillar tuyoqqa salbiy ta’sir ko‘rsatishi natijasida shox qavati bo‘kadi, uning mustahkamligi pasayadi, natijada tuyaq kasalliklari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Oyoqlarining distal qismida yiringli-nekrotik patologiyalar qayd etilgan sigirlar saqlanadigan binolarning qattiq betonli tagjoydan iboratligi va hayvonlar oziqlanadigan joylarning doimiy nam bo‘lganligi, tezak o‘z vaqtida olib chiqilmasligi holatlari qayd etildi. Tayanish vaqtida sigirlar tuyog‘i medial qismiga uning lateral qismiga qaraganda yuqori og‘irlik tushishi, oldingi oyoqlar tuyoqlarining erga ko‘proq tayanishi natijasida uning tovon qismining emirilishining ortishi ushbu guruh kasalliklarning yana bir asosiy sababi hisoblanadi.

O‘rganilgan aksariyat xo‘jaliklarda hayvonlar saqlanadigan joylarda betonli

qorishmalarining ko‘chishi natijasida tagjoyda notekisliklarning paydo bo‘lishi, tuyoq teri asosiga jarohatlovchi ta’sir etuvchi unsurlarning mavjudligi, gipo- va adinamiyalarning rivojlanishi, oziqalar tarkibida etarli miqdordagi mikro- va makroelementlarning bo‘lmasligi, buning ustiga yuqori konsentrat tipdagi oziqlantirishning joriy etilganligi, tuyoq terisi asosidagi yallig‘lanishlarni o‘z vaqtida bartaraf etilmasligi oqibatida ularga tashqi muhitdan doimiy tarzda mikroorganizmlarning tushib turishi yiringli o‘choqlarning kelib chiqishiga olib kelishi kuzatildi. Aksariyat holatlarda xo‘jaliklardagi mavjud sifatsiz oziqlantirishlar, saqlash sharoitlarining yomonligi, tuyoqlarning o‘z vaqtida parvarish qilinmasliklari undagi shoxsimon qavatning o‘sish jarayonining buzilishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, hayvonlarda shakli buzilgan tuyoqlarning rivojlanishiga va mos kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Beton va keramzit tagjoylar, ayniqsa, bunga ko‘p miqdorda namlik qo‘shilgan paytlarda, tuyoqlar emirilishining kuchayishi kuzatiladi.

Klinik kuzatishlar olib borilgan etti qoramolchilik fermasining to‘rttasida sog‘ish joylariga kirib-chiqish yo‘laklariga 2-3% li formalinli vannalar tashkil etilmaganligi, tashkil etilganlarida ham ularning talabga javob bermasligi, vannalardagi formalinli eritmaning belgilangan vaqtda yangilanib turilmaslik holatlarining mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagi va shunga o‘xhash etiologik omillar oqibatida yiringli pododermatit kasalligining rivojlanishi, kasallik oqibatida tuyoq terisi asosida nekrozga uchragan to‘qimalarning emirilganligi va yiringli patologik o‘zgarishlarning mavjudligi kuzatildi.

Bundan tashqari, yiringli pododermatit bilan kasallangan hayvonlarning aksariyatida orqa oyoqlarning zararlanishi kuzatildi. Bunday holatni – sog‘in sigirlar elinida sut to‘planishi, bug‘ozlik davrida homilaning kattalashishi natijasida og‘irlikning asosan orqa oyoqlarga tushishi, ishlov berilmagan tuyoqlar teri asosining betonli qorishmali notekis g‘adir-budir tagjoy yuzasining botishi oqibatida jarohatlanishi va ular orqali infeksiyaning kirib kelishi bilan izohlash mumkin.

**Xulosa:** Yuqori mahsuldor golshtin-friz zotli qoramollarning bizning mintaqamiz sharoitiga moslashish jarayoni hamda yog‘ingarchiliklar ko‘p bo‘lgan yil fasllari bilan bog‘liq ravishda kasallikning avj olish holatlari kuzatildi. SHuningdek, yiringli pododermatit kasalligining yilning issiq vaqtarda ham qisman uchrab turishi kuzatildi. Bunday holatni hayvonlarni issiqdan saqlash maqsadida molxonaning yuqori qismlaridan doimiy mikroklimatni ta’minlash uchun purkab turiladigan suv ta’sirida hayvonlar saqlanadigan joyning muntazam nam bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, yiringli pododermatit kasalligining qish paytida ko‘p uchrashining asosiy sabablaridan yana biri aksariyat molxonalarda yayratish maydonchalarining to‘rt tomonlama selofan bilan yopilishi natijasida kuchli terlashning vujudga kelishi hisoblanadi. Bunday terlash nafaqat namlikning, balki molhona havosida zaharli

gazlarning doimiy yuqori bo‘lishiga olib keladi. Yuqoridagi holatlarni tahlil qilgan holda yiringli pododermatit kasalligni keltirib chiqaruvchi etiologik omillarni oldi olinadigan bo‘lsa, yiringli pododermatit kasalligini keskin kamayishiga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Blednov A.I., Blednova A.V. Ispolzovanie dezinfektantov dlya lecheniya i profilaktiki zbolevaniy konechnostey na sovremennykh molochnykh kompleksax // Vestnik KGSXA. Kurgan, 2014. -№ 6. –S. 77-79.
2. Eliseev A.N., Kolomeysev S.M., Blednov A.I., Tolkachev V.A., Boldyreva D.N., Steblovskiy E.A. Kompleksnyy metod lecheniya gnoyno-nekroticheskix porajeniy tkaney u molodnyaka krupnogo robatogo skota // Vestnik KGSXA. Kurgan, 2013. -№ 9. –S. 71-73.
3. Ermolaev V.A., Marin E.M., Saveleva YU.V. Etiologiya, rasprostranenie zbolevaniy korytets krupnogo robatogo skota v zimnee-stoylovyu period // Agrarnaya nauka i obrazovanie na sovremennom etape razvitiya: oryt, problemy i puti ix resheniya: Materialy Mejdunar.nauch.- praktich.konf. Ulyanovsk: Ulyanovskaya GSXA, 2009.-T. -№ 3. –S. 80-81.
4. Xuzin D.A., Aleksandrov D.I. Merы borby s nekrobakteriozom krupnogo robatogo skota // Veterinarnyy vrach. Kazan, 2002. №1 (9). –S. 46-49.
5. Xuzin D.A., Xusniev F.A., Lutfullin D.N., Muxammetshin N.A. Oryt ozdorovleniya krupnogo robatogo skota ot massovykh zbolevaniy konechnostey v OOO»IM. M. Djalilya» Bugulminskogo rayona Respublikи Tatarstan // Uch. Zapiski Kazanskoy GAVM im. N.E. Baumana. Kazan, 2011.-T. 208. –S. 307-311.
6. Ostrovskiy N.S. Klassifikatsiya bolezney palsev krupnogo robatogo skota // Veterinariya. – 1981. - № 8. –S. 60-61.
7. Avrorov V.N. Sushnost i klassifikatsiya travmatizma v promышlennom jivotnovodstve // Veterinariya. M.,1992. -№ 5. –S. 48-50.
8. Ogata A., Shimizu H., Sashiki S., Yamaguchi A. Effect of applied ozonated autohemotherapy on anastasia and dysstasia in dairy cows // J. Japan Veter. Ved. Assn., 1999. Vol. 52, № 4. –P. 231-234.